



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 12 - iyun

172-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 6-iyundagi 352-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi 2023-yil 28-martdagi PF-45-son Farmoni hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 6-iyundagi 352-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "Mahalliy budget mablag'larini taqsimlash to'g'risida"gi 2023-yil 6-iyundagi 352-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahar hokimining mazkur qaroriga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023- yil 26-maydagi 513-sonli bildirishnomasiga asosan Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi muassasalarida ishlovchi xodimlarni o'z vaqtida va to'liq ish haqi bilan ta'minlash maqsadida Respublika budjetidan Toshkent shahar mahalliy budjetiga 7 899 804,0 ming (yetti milliard sakkiz yuz to'qson to'qqiz million sakkiz yuz to'rt ming) so'm mablag' ajratilganligi;

Toshkent shahar hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy masalalari bo'yicha majmuasining ta'lim tizimi muassasalarida ishlovchi xodimlarni o'z vaqtida va to'liq ish haqi bilan ta'minlash maqsadida Toshkent shahar bo'yicha mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar xarajatlariga tegishli o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

Toshkent shahri va tumanlari mahalliy budjeti xarajatlariga hamda Toshkent shahri mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar xarajatlariga o'zgartirish kiritilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**